

Navro'z hozirgi kunda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron, Ozarboyjon, Turkiya, Gruzuya, Albaniya, Makedoniyada rasman o'tkaziladi. Rossiya, Mongoliya, Xitoy, Bangladesh, Hindiston, Pokiston va Iroqda ham bayram qilinadi.

O'zbekistonda 1990 yili Navro'z umumxalq bayrami deb e'lon qilingan. Shundan buyon har yili muhim davlat tadbiri sifatida nishonlab kelinadi.

Navro'z kun va tunning tenglashishi, tabiat uyg'onishi, bahor fasli va yangi mehnat mavsumi boshlanishi bayrami sifatida bir necha ming yillardan buyon nishonlab kelinadi.

Navro'z – ko'hna va boqiy bayram

Navro'zni 2009 yili YuNESKO Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritgan.

Sovet O'zbekistonida Navro'z 1920- va 1980-yillari taqiqqa uchragan.

2010 yili BMT 21 martni Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qildi.

Navro'zning boqiy falsafasi – tenglik, totuvlik va bag'rikenglik.